



NAVOIY VILOYATI STATISTIKA BOSHQARMASI

Navoiy viloyatida kichik tadbirkorlik

2024- yil yanvar-dekabr

Dastlabki ma'lumotlar



Faoliyat yuritayotgan kichik korxona va mikrofirmalar


2025- yilning 1-yanvar holatiga faoliyat yuritayotgan kichik korxona va mikrofirmalar soni **16 165** tani tashkil etib, o'tgan yilning shu davriga nisbatan **3 374** taga yoki **17,3 %** ga kam. Kichik tadbirkorlik subyektlarining soni har **1000** aholiga **17,7** birlikni tashkil qildi.

Yangi tashkil etilgan kichik korxona va mikrofirmalar


2024- yilning yanvar-dekabr oylarida **2 944** ta yangi kichik korxona va mikrofirmalar (fermer va dehqon xo'jaliklarisiz) tashkil qilindi, bu o'tgan yilning shu davriga nisbatan **22,4 %** ga kam demakdir.

Yuridik shaxs – o'z mulkida, xo'jalik yuritishida yoki operativ boshqaruvida alohida mol-mulkka ega bo'lgan hamda o'z majburiyatlari yuzasidan ushbu mol-mulk bilan javob beradigan, o'z nomidan mulkiy yoki shaxsiy nomulkiy huquqlarga ega bo'la oladigan va ularni amalga oshira oladigan, majburiyatlarni bajara oladigan, sudda da'vogar va javobgar bo'la oladigan tashkilot yuridik shaxs hisoblanadi.

2021-2025- yillar 1- yanvar holatida faoliyat yuritayotgan kichik korxona va mikrofirmalar soni dinamikasi (fermer va dehqon xo'jaliklarisiz), ming birlikda



2025- yilning 1- yanvar holatiga faoliyat yuritayotgan kichik korxona va mikrofirmalarning eng yuqori ulushga ega bo'lgan sohalar bo'yicha soni va ulushi



Faoliyat yuritayotgan kichik korxona va mikrofirmalar


Tuman va shaharlar bo'yicha 1- yanvar holatiga faoliyat yuritayotgan kichik korxona va mikrofirmalar soni, birlikda

2024- y.		2025- y.
4 285	Navoiy shahri	3 970
2 998	Karmana tumani	2 653
2 673	Qiziltepa tumani	2 226
2 275	Xatirchi tumani	1 589
2 071	Navbahor tumani	1 639
1 279	Zarafshon shahri	1 121
1 369	Nurota tumani	1 044
873	Konimex tumani	692
748	Uchquduq tumani	576
576	Tomdi tumani	339
392	G'ozg'on shahri	316

2025- yil 1- yanvar holatiga faoliyat yuritayotgan kichik korxona va mikrofirmalar soni jami **16 165** tani, shundan yangi tashkil etilganlari **2 944** tani tashkil etdi.

2025- yilning 1- yanvar holatiga ko'ra hududlar bo'yicha faoliyat yuritayotgan kichik korxona va mikrofirmalarning eng ko'pi Navoiy shahrida **3 970** tani yoki jamiga nisbatan **24,6 %** ni tashkil etdi.

1- yanvar holatiga faoliyat yuritayotgan kichik korxona va mikrofirmalar soni, birlikda





Kichik tadbirkorlik subyektlarining har ming aholiga nisbati

Tuman va shaharlar kesimida faoliyat yuritayotgan kichik tadbirkorlik subyektlari sonining har 1000 aholiga nisbati, birlikda)*

G'ozg'on shahri	34,5
Tomdi tumani	33,2
Navoiy shahri	24,3
Konimex tumani	22,7
Karmana tumani	20,7
Qiziltepa tumani	19,1
Navbahor tumani	16,7
Uchquduq tumani	16,4
Nurota tumani	16,0
Zarafshon shahri	12,6
Xatirchi tumani	10,8

Navoiy viloyatida faoliyat yuritayotgan kichik tadbirkorlik subyektlari sonining har 1000 aholiga nisbati 2025-yil 1- yanvar holatiga, birlikda



2025- yil 1- yanvar holatiga faoliyat yuritayotgan kichik tadbirkorlik subyektlari soni har **1000** aholiga nisbatan **17,7** birlikni tashkil etib, bu ko'rsatkich 2024- yilning mos davriga nisbatan **3,3** birlikka kamaygan.


Hududlar kesimida kichik tadbirkorlik subyektlari sonining har **1000** aholiga nisbati eng yuqori ko'rsatkich G'ozg'on shahrida **34,5** birlik, Tomdi tumanida **33,2** birlik, Navoiy shahrida **24,3** birlik, Konimex tumani **22,7** birlik va Xatirchi tumanida **10,8** birlikka yetdi.

* Kichik korxona va mikrofirmalar (fermer va dehqon xo'jaliklarini qo'shgan holda)


Kichik tadbirkorlik subyektlarining har ming aholiga nisbati

Navoiy viloyatida faoliyat yuritayotgan kichik tadbirkorlik subyektlari sonining har 1000 aholiga nisbati, birlikda

Eng yuqori ko'rsatkich



G'ozg'on shahrida
– 34,5 birlik.



O'rta ko'rsatkich



Qiziltepa tumani
– 19,1 birlik.



Eng past ko'rsatkich



Xatirchi tumani
– 10,8 birlik.



Kichik tadbirkorlik subyektlari sonining har 1000 aholiga nisbati tuman va shaharlar kesimida tahlil qilinganda eng yuqori ko'rsatkich G'ozg'on shahrida **34,5 birlik**, Tomdi tumanida **33,2 birlik**, Navoiy shahrida **24,3 birlik**, Konimex tumanida **22,7 birlik**, Karmana tumanida **20,7 birlik**, Qiziltepa tumanida **19,1 birlik**, Navbahor tumanida **16,7 birlik**, Uchquduq tumanida **16,4 birlik**, Nurota tumanida **16,0** Zarasfshon shahrida **12,6 birlik**, Xatirchitumnida **10,8 birlik** kuzatildi

Tadbirkorlik faoliyati (kichik tadbirkorlik) – tadbirkorlik faoliyati subyektlari tomonidan qonun hujjatlariga muvofiq amalga oshiriladigan, o'zi tavakkal qilib va o'z mulkiy javobgarligi ostida daromad (foyda) olishga qaratilgan tashabbuskorlik faoliyatidir.

2025- yil 1- yanvar holatiga har 1000 aholiga nisbatan to'g'ri keladigan tadbirkorlik subyektlarining ko'p tashkil etgan shahar va tumanlar, birlikda

Karmana tumani

20,7

Navoiy shahri

22,7

24,3

G'ozg'on shahrida

33,2

34,5

Konimex tumani

Tomdi tumanida

Yangi tashkil etilgan kichik korxona va mikrofirmalar


yanvar-dekabr oylarida tuman va shaharlar bo'yicha yangi tashkil etilgan kichik korxona va mikrofirmalar, birlikda

2023- y.

2024- y.

661	Navoiy sh.	704
575	Karmana t.	408
447	Qiziltepa t.	327
412	Navbahor t.	292
428	Xatirchi t.	290
236	Konimex t.	275
268	Zarafshon sh.	214
243	Nurota t.	131
175	Tomdi t.	99
251	Uchquduq t.	123
100	G'ozg'on sh.	81

2024- yilning yanvar-dekabrida yangi tashkil etilgan kichik korxona va mikrofirmalarning tuman va shaharlar bo'yicha ulushi, % da



2024- yilning yanvar-dekabrida hududlar bo'yicha yangi tashkil etilgan kichik korxona va mikrofirmalarning jamiga nisbatan eng ko'p ulushi Navoiy shahri – **23,9 %**, Karmana tumani – **13,9 %**, Qiziltepa tumani– **11,1 %**, Xatirchi tumani – **9,9 %**, Navbahor tumani – **9,9 %**, Konimex tumani – **9,3 %** hamda Zarafshon shahri– **7,3 %** hissalariga to'g'ri keldi.

Yangi tashkil etilgan kichik korxona va mikrofirmalar

2023-2024- yillarning yanvar-dekabrida iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha yangi tashkil etilgan kichik korxona va mikrofirmalar, birlikda



Qishloq, o'rmon va baliqchilik xo'jaligi



Sanoat




Qurilish



Savdo



Tashish va saqlash



Yashash va ovqatlanish bo'yicha xizmatlar



Axborot va aloqa




Sog'liqni saqlash va ijtimoiy xizmatlar ko'rsatish



Boshqa xizmatlar

2023- y. 2024- y.

Yangi tashkil etilgan kichik korxona va mikrofirmalar bo'yicha eng yuqori ko'rsatkichga ega bo'lgan tumanlar va shahar, birlikda




2024- yilning yanvar-dekabrida iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha eng ko'p kichik korxona va mikrofirma savdoda **994 ta**, sanoatda **519 ta** yangidan tashkil etilgan.

Navoiy viloyatining tumanlari va shaharlari kesimida tahlil qilinganda, eng ko'p kichik korxona va mikrofirma Navoiy shahrida **704 ta**, Karmana tumanida **408 ta** hamda Qiziltepa tumanida **327 ta** yangidan tashkil etilgan.

2023- y. 2024- y.

Yangi tashkil etilgan kichik korxona va mikrofirmalar

Iqtisodiy faoliyat turlari kesimida 2020-2024- yillarning yanvar-dekabr oylari davomida yangi tashkil etilgan kichik korxona va mikrofirmalar soni, birlik




So'nggi yillarda O'zbekiston Respublikasi Prezidenti tomonidan kichik tadbirkorlik subyektlarini qo'llab - quvvatlash hamda ishbilarmonlik muhitini sifat jihatdan yaxshilash bo'yicha qabul qilingan qaror va farmonlari, shuningdek, bu sohaga berayotgan katta e'tiborlari natijasida 2020-2024- yillarning yanvar-dekabr oylari davomida jami **23 490** ta kichik korxona va mikrofirma yangidan tashkil etildi. Yangi tashkil etilgan kichik korxona va mikrofirmalar sohalar kesimida tahlil qilinganda, eng ko'p yangi subyektlar savdo sohasida – **9 150** (yoki **38,9 %**) ta, xizmatlar sohasida – **4 976** (yoki **21,2 %**) ta, sanoat sohasida – **4 856** (yoki **20,7 %**) ta, qishloq, o'rmon va baliqchilik xo'jaligida – **3 329** (yoki **14,2 %**) ta va qurilish sohasida **1 179** (yoki **5,1 %**) tani tashkil etgan.

Kichik tadbirkorlik subyektlarining asosiy iqtisodiy ko'rsatkichlari

Yanvar- dekabr oylarida kichik tadbirkorlikning asosiy ko'rsatkichlari, % da




Sanoat



Qishloq, o'rmon va baliqchilik xo'jaligi




Investitsiya



Qurilish



Chakana savdo



Xizmatlar



Yuk tashish



Yuk aylanmasi



Yo'lovchi tashish



Yo'lovchi aylanmasi




Eksport



Import


■ 2023- y. ■ 2024- y.




Kichik tadbirkorlik subyektlarining asosiy iqtisodiy ko'rsatkichlari

2020-2024- yillarning yanvar-dekabr oylarida kichik tadbirkorlik subyektlarining YAHMdagi ulushi dinamikasi, % da

2024- yilning yanvar-dekabr oylarida YAHM tarkibida kichik tadbirkorlik subyektlarining ulushi **25,1 %** ni tashkil qilib, 2023- yilning mos davriga nisbatan **3,0 %** ga kamaygan.





2024- yilning yanvar-dekabr oylarida kichik tadbirkorlik subyektlarining eng yuqori ulushga ega bo'lgan tarmoqlari, % da





2024- yilning yanvar-dekabr oylarida kichik tadbirkorlikning eng yuqori ulushlari qishloq xo'jaligida **96,0 %** ni, chakana savdoda **93,6 %** ni, yo'lovchi aylanmasi **87,2 %** ni, yo'lovchi tashishda **86,9 %** ni, qurilishda **74,7 %** ni, xizmatda **58,3 %** tashkil etdi.

Kichik tadbirkorlik subyektlarining asosiy iqtisodiy ko'rsatkichlari (yanvar-dekabr oylarida)



Kichik tadbirkorlik subyektlarida sanoat faoliyati



Kichik tadbirkorlik subyektlarida qurilish faoliyati



Kichik tadbirkorlik subyektlarida investitsiya faoliyati




Kichik tadbirkorlik subyektlarining asosiy iqtisodiy ko'rsatkichlari (yanvar-dekabr oylarida)

Kichik tadbirkorlik subyektlarida qishloq xo'jaligi faoliyati

Hajmi, mlrd. so'mda


Ulushi, % da



Kichik tadbirkorlik subyektlarining chakana savdodagi faoliyati

Hajmi, mlrd. so'mda


Ulushi, % da



Kichik tadbirkorlik subyektlarining xizmat ko'rsatishdagi faoliyati

Hajmi, mlrd. so'mda

Ulushi, % da



Kichik tadbirkorlik subyektlarining sanoat faoliyati

2024- yilning yanvar-dekabr oylarida hududlar bo'yicha kichik tadbirkorlik subyektlari tomonidan sanoat mahsulotlari ishlab chiqarish hajmi, mlrd. so'm

Karmana tumani 2 880,4

Navoiy shahri 2 449,3

Qiziltepa tumani 1 438,4

Xatirchi tumani 992,9

Zarafshon shahri 823,0

Navbahor tumani 703,9

Uchquduq tumani 525,7

Nurota tumani 454,4

Konimex tumani 363,6


G'ozg'on shahri 210,2

Tomdi tumani 81,7

2024- yilning yanvar-dekabr oylarida kichik tadbirkorlik subyektlari tomonidan **7 930,6** mlrd. so'mlik sanoat mahsulotlari ishlab chiqarildi.

Hududlar kesimida kichik tadbirkorlik subyektlarining eng ko'p sanoat mahsulotlari ishlab chiqarish hajmi Karmana tumani (**2 880,4**) mlrd. so'm), Navoiy shahri (**2 449,3** mlrd. so'm), Qiziltepa tumani (**1 438,4** mlrd. so'm), Xatirchi tumani (**992,9** mlrd. so'm) va Zarafshon shahri (**823,0** mlrd. so'm) hissasiga to'g'ri keldi. Tomdi tumanida (**81,7** mlrd. so'm) sanoat mahsulotlari ishlab chiqarish hajmi eng past bo'lib qolmoqda.

Kichik tadbirkorlik subyektlari tomonidan ishlab chiqarilgan sanoat mahsulotlari hajmida eng yuqori ulushga ega hududlar, mlrd. so'mda




yashirin iqtisodiyotni qo'shgan holda

Kichik tadbirkorlik subyektlarining sanoat faoliyati


2020-2024- yillarning yanvar-dekabr oylarida kichik tadbirkorlik subyektlarining sanoatdagi ulushi dinamikasi, % da

2024- yilning yanvar-dekabrida sanoat ishlab chiqarishining umumiy hajmida kichik tadbirkorlikning ulushi 9,2 % ni tashkil etdi.



2024- yilning yanvar-dekabrida hududlar kesimida kichik tadbirkorlikning jami sanoat mahsulotidagi ulushi, % da

Hududlar kesimida kichik tadbirkorlikning jami sanoat mahsulotidagi eng yuqori ulushini Zarafshon shahri, G'ozg'on shahri, Uchquduq tumani va Tomdi tumanlari (100,0 %), Qiziltepa tumani (94,7 %), Nurota tumani (90,1 %), Navbahor tumani (52,9 %), Xatirchi tumani (48,1%), Konimex tumani (46,7 %), Karmana tumani (24,2 %) va Navoiy shahri (2,0 %) tashkil etdi.



Kichik tadbirkorlik subyektlarining qurilish faoliyati

2020-2024- yillarning yanvar-dekabr oylarida kichik tadbirkorlik subyektlarining qurilishdagi hajmi va ulushi dinamikasi



2024- yilning yanvar-dekabr oylarida tuman va shahar bo'yicha kichik tadbirkorlik subyektlarida bajarilgan qurilish ishlari hajmi va ulushi

G'ozg'on shahri	38,3	100,0
Karmana tumani	719,9	95,4
Navbahor tumani	618,1	92,7
Xatirchi tumani	644,4	92,0
Zarafshon shahri	894,4	89,8
Konimex tumani	78,9	78,1
Navoiy shahri	1145,4	75,9
Qiziltepa tumani	856,2	63,2
Nurota tumani	403,9	62,3
Uchquduq tumani	139,2	61,2
Tomdi tumani	51,3	3,7

hajmi, mlrd. soma

ulushi, % da


2024- yilning yanvar-dekabr oylarida kichik tadbirkorlik subyektlari tomonidan amalga oshirilgan qurilish ishlari hajmi **8 925,0** mlrd. so'mni yoki qurilish ishlari umumiy hajmining **74,7** % ini tashkil etdi. 2023- yil yanvar-dekabr oylariga nisbatan **100,3** % ni tashkil qildi.

Hududlar kesimida kichik tadbirkorlik subyektlarining eng ko'p bajarilgan qurilish ishlari hajmi Navoiy shahrida (**11 45,4** mlrd so'm) Zarafshon shahrida (**894,4** mlrd. so'm), Xatirchi tumani (**644,4** mlrd. so'm), Navbahor tumani (**618,1** mlrd. so'm), Karmana tumani (**719,9** mlrd. so'm), Nurota tumani (**403,9** mlrd. so'm) hamda Uchquduq tumanida (**139,2** mlrd. so'm) da qayd etildi.

yashirin iqtisodiyotni qo'shgan holda

Kichik tadbirkorlik subyektlarining investitsiya faoliyati


2020-2024- yillarning yanvar-dekabr oylarida kichik tadbirkorlik subyektlarining investitsiya hajmining o'zgarish dinamikasi, mlrd. so'mda




2024- yilning yanvar-dekabr oylarida kichik tadbirkorlik subyektlari tomonidan asosiy kapitalga kiritilgan investitsiyalar hajmi **13 537,1** mlrd. so'mni yoki jami investitsiya hajmining **39,8 %** ini tashkil etdi. 2023- yilning mos davriga nisbatan **99,1 %** ni tashkil qildi.

Hududlar kesimida kichik tadbirkorlik subyektlarining eng yuqori asosiy kapitalga kiritilgan investitsiyalari hajmi Tomdi tumani (**2 922,1** mlrd. so'm), Nurota tumani (**2 894,3** mlrd. so'm), Navoiy shahri (**2 201,6** mlrd. so'm), Zarafshon shahri (**1 327,3** mlrd. so'm), Karmana tumani (**1 213,0** mlrd. so'm), Xatirchi tumani (**757,1** mlrd. so'm), Qiziltepa tumani (**720,3** mlrd. so'm) hamda Navbahor tumani (**577,9** mlrd. so'm) da qayd etildi.

2020-2024- yillarning yanvar-dekabrida kichik tadbirkorlik subyektlarining investitsiyadagi ulushi dinamikasi, % da



2024- yilning yanvar-dekabr oylarida kichik tadbirkorlik subyektlarining investitsiya hajmi va ulushi




■ hajmi, mlrd. so'm ■ ulushi, %

Kichik tadbirkorlik subyektlarining qishloq xo'jaligi faoliyati

2024- yilning yanvar-dekabrida kichik tadbirkorlik subyektlari tomonidan ishlab chiqarilgan qishloq xo'jaligi mahsulotlari hajmi **20 948,1** mlrd. so'mni yoki jami qishloq xo'jaligi mahsuloti hajmining **96,0** % ini tashkil etdi. O'sish sur'ati 2023- yilning mos davriga nisbatan **103,4** % ni tashkil qildi.

2020-2024- yillarning yanvar-dekabrida kichik tadbirkorlik subyektlari qishloq xo'jaligi hajmining o'zgarish dinamikasi, trln. so'mda



Hududlar kesimida kichik tadbirkorlik subyektlarining eng ko'p ishlab chiqarilgan qishloq xo'jaligi mahsulotlari hajmi Xatirchi tumani (**6 417,3** mlrd. so'm), Qiziltepa tumani (**3 984,6** mlrd. so'm), Navbahor tumani (**3 372,5** mlrd. so'm), Karmana tumani (**2 707,5** mlrd. so'm), Nurota tumani (**2 053,4** mlrd. so'm) hamda Konimex tumani (**1 103,6** mlrd. so'm) da qayd etildi.


2024- yilning yanvar-dekabrida kichik tadbirkorlik subyektlari tomonidan ishlab chiqarilgan qishloq xo'jaligi mahsulotlari hajmi va ulushi

Zarafshon sh	81,6	100,0
Uchquduq	428,5	100,0
Qiziltepa	3 984,6	99,5
Tomdi	593,4	99,4
Navbahor	3 372,5	99,1
Navoiy sh	121,6	96,5
Karmana	2 707,5	96,2
Nurota	2 053,4	95,1
Xatirchi	6 417,3	94,7
G'ozg'on sh	83,9	85,0
Konimex	1 103,6	83,3

hajmi, mlrd. so'mda


ulushi, % da

2020-2024- yillarning yanvar-dekabrida kichik tadbirkorlik subyektlarining qishloq xo'jaligidagi ulushi dinamikasi, % da



Kichik tadbirkorlik subyektlarining chakana savdo faoliyati

2020-2024- yillarning yanvar-dekabr oylarida kichik tadbirkorlik subyektlarining chakana savdodagi hajmi va ulushi dinamikasi



2024- yilning yanvar-dekabrida kichik tadbirkorlik subyektlarining chakana savdo tovar aylanmasi hajmi **14 040,9** mlrd. so'mni yoki umumiy chakana savdo tovar aylanmasining **93,6** % ini tashkil etib, o'sish sur'ati 2023-yilning mos davriga nisbatan **110,4** % ni tashkil qildi.


2024- yil yanvar-dekabr oylarida hududlar bo'yicha kichik tadbirkorlik subyektlarida chakana savdo tovar aylanmasi va ulushi

Zarafshon sh	1 299,9	89,5
Uchquduq .	680,8	99,6
Qiziltepa	1 606,1	98,6
Tomdi	121,1	99,3
Navbahor	781,2	91,5
Navoiy sh	3 867,4	87,7
Karmana	2 323,1	100
Nurota	693,6	97,8
Xatirchi	1 757,3	97,8
G'ozg'on sh	13,4	97,9
Konimex	453,9	96,4

hajmi, mlrd. soma
ulushi, % da


Hududlar kesimida kichik tadbirkorlik subyektlarining eng ko'p chakana savdo tovar aylanmasi hajmi Navoiy shahri (**3 867,4** mlrd. so'm), Karmana tumani (**2 323,1** mlrd. so'm), Xatirchi tumani (**1 757,3** so'm), Zarafshon shahri (**1 299,9** mlrd. so'm), Navbahor tumani (**781,2** mlrd. so'm) Uchquduq tumani (**680,8** mlrd. so'm) va Nurota tumani (**693,6** mlrd.so'm) ga to'g'ri keldi.

2020-2024- yillarning yanvar-dekabr oylarida kichik tadbirkorlik subyektlarining chakana savdodagi hajmining o'zgarishi, trln. so'm



Kichik tadbirkorlik subyektlarining xizmat ko'rsatish faoliyati

2020-2024- yillarning yanvar-dekabr oylarida kichik tadbirkorlik subyektlarining ko'rsatilgan xizmatlar hajmidagi ulushi dinamikasi, % da



2024- yilning yanvar-dekabr oylarida hududlar bo'yicha kichik tadbirkorlik subyektlarida xizmat ko'rsatish hajmi, mlrd. so'mda

Navoiy sh.	2 434,4
Konimex t.	1 259,8
Navbahor t.	973,4
Zarafshon t.	910,4
Xatirchi t.	826,7
Karmana t.	606,7
Nurota t.	481,3
Uchquduq t.	386,1
Qiziltepa t.	268,9
Tomdi t.	130,8
G'ozg'on sh.	25,0

2024- yil yanvar-dekabr oylarida kichik tadbirkorlik subyektlari tomonidan **11 688,4** mlrd. so'mlik xizmatlar ko'rsatildi yoki ko'rsatilgan xizmatlar umumiy hajmining **58,3 %** ni tashkil qildi va o'sish sur'ati 2023- yil yanvar-dekabr oylariga nisbatan **113,7 %** ni tashkil qildi.

Hududlar kesimida kichik tadbirkorlik subyektlarining eng ko'p xizmatlar hajmi Navoiy shahri (**2 434,4** mlrd. so'm), Konimex tumani (**1 259,8** mlrd. so'm), Navbahor tumani (**973,4** mlrd. so'm), Zarafshon shahar (**910,4** mlrd. so'm), Xatirchi tumani, (**826,7** mlrd. so'm) Karmana tumani (**606,7** mlrd so'm) va Nurota tumani (**481,3** mlrd. so'm) hissasiga to'g'ri keldi.

yashirin iqtisodiyotni qo'shgan holda

Kichik tadbirkorlik subyektlarining xizmat ko'rsatish faoliyati

Xizmatlar sohasi turlarida kichik tadbirkorlik subyektlarining hajmi va ulushi
(2024-yil yanvar-dekabr)

4 024,7	Savdo xizmatlari	95,0
3 152,5	Yashash va ovqatlanish xizmatlari	57,0
2 423,5	Transport xizmatlari	91,9
433,7	Shaxsiy xizmatlar	99,9
398,4	Boshqa xizmatlar	54,6
289,3	Kompyuterlar va maishiy tovarlarni ta'mirlash bo'yicha xizmatlar	99,2
232,0	Ko'chmas mulk bilan bog'liq xizmatlar	65,1
174,7	Ijara xizmatlar	97,5
152,8	Me'morchilik, muhandislik izlanishlar, texnik sinovlar va tahlil sohasidagi xizmatlar	20,5
147,1	Sog'liqni saqlash sohasidagi xizmatlar	54,7
133,6	Aloqa va axborotlashtirish xizmatlari	21,1
111,3	Ta'lim sohasidagi xizmatlar	18,4
14,7	Moliyaviy xizmatlar	0,4

Hajmi, mln. so'mda

Ulushi, foizda


Yuqoridagi jadval ma'lumotlariga ko'ra, xizmatlar sohasida kichik tadbirkorlik subyektlarining eng yuqori ulushi shaxsiy xizmatlarda – **99,9 % (433,7 mln. so'm)**, Kompyuterlar va maishiy tovarlarni ta'mirlash bo'yicha xizmatlarida – **99,2 % (289,3 mln. so'm)**, Ijara xizmatlarida – **97,5 % (174,1 mln. so'm)** hamda savdo xizmatlarida **95,0 % (4 024,7 mln. so'm)**ni tashkil etdi.

Kichik biznes subyektlarining xizmatlar sohasida eng kichik ulushi moliyaviy xizmatlarda **0,4 % (14,7 mln. so'm)** kuzatildi.


Kichik tadbirkorlik subyektlarining tashqi savdo faoliyati (yanvar-dekabr oylarida)

Kichik tadbirkorlik subyektlarining eksport faoliyati

Hajmi, mln. AQSH dol.




Ulushi, % da




Kichik tadbirkorlik subyektlarining import faoliyati

Hajmi, mln. AQSH dol.




Ulushi, % da



Kichik tadbirkorlik subyektlarining eksport faoliyati

2020-2024- yillarning yanvar-dekabr oylarida kichik tadbirkorlik subyektlarining mahsulotlar (ishlar va xizmatlar) eksporti hajmidagi ulushi dinamikasi, % da



2024- yilning yanvar-dekabr oylarida kichik tadbirkorlik subyektlari tomonidan amalga oshirilgan mahsulot (ishlar va xizmatlar) eksportining hajmi va ulushi

Karmana	31 000,1	28,3
Qiziltepa	14 492,3	96,4
Navoiy sh	13 421,4	1,5
Xatirchi	7 192,6	9,8
Navbahor	6 784,4	30,3
Zarafshon sh	3 074,1	99,0
G'ozg'on sh	2 773,5	100,0
Konimex	2 092,3	100,0
Nurota	1 689,1	28,0
Uchquduq	532,6	98,6
Tomdi	136,3	99,6

hajmi, ming AQSH dollar

ulushi, % da


yashirin iqtisodiyotni qo'shgan holda

2024-yilning yanvar-dekabr oylarida kichik biznes subyektlari tomonidan amalga oshirilgan mahsulot (ishlar va xizmatlar) eksporti hajmi **84 168,9** ming AQSH dollarini yoki umumiy eksport hajmining **7,6** % ini tashkil etdi.

2024- yilning yanvar-dekabr oylarida hududlar bo'yicha kichik tadbirkorlik subyektlari tomonidan amalga oshirilgan mahsulot (ishlar va xizmatlar) eksportining jamiga nisbatan eng ko'p ulushi G'ozg'on shahrida, Konimex tumanida – **100,0** %, Uchquduq tumanida – **98,6** %, Zarafshon shahrida – **99,0** %, Qiziltepa tumanida – **96,4** %, Navbahor tumanida – **30,3** %, Karmana tumanida – **28,3** %, Nurota tumanida – **20,0** % va Xatirchi tumanida – **9,8** % ni tashkil qildi. Eng past ko'rsatkich Navoiy shahrida – **1,5** % ni tashkil etdi.

Kichik tadbirkorlik subyektlarining import faoliyati


2020-2024- yillarning yanvar-dekabr oylarida kichik tadbirkorlik subyektlarining mahsulotlar (ishlar va xizmatlar) importi hajmidagi ulushi dinamikasi, % da



2024- yilning yanvar-dekabr oylarida kichik biznes subyektlari tomonidan amalga oshirilgan mahsulot (ishlar va xizmatlar) importining hajmi **197 567,6 ming** AQSH dollarini yoki jami importning **41,5 %** ini tashkil etdi.

2024- yilning yanvar-dekabr oylarida kichik tadbirkorlik subyektlari tomonidan amalga oshirilgan mahsulotlar (ishlar va xizmatlar) importining jami importdagi ulushi, % da

2024- yilning yanvar-dekabr oylarida hududlar bo'yicha kichik tadbirkorlik subyektlari tomonidan amalga oshirilgan mahsulotlar (ishlar va xizmatlar) importining jami importga nisbatan eng yuqori ulushi G'ozg'on shahrida, Tomdi va Uchquduq tumanlarida - **100,0 %**, Konimex tumani - **94,4 %**, Qiziltepa tumanida - **94,1 %**, Zarafshon shahar - **90,6 %**, Nurota tumanida - **83,9 %**, Xatirchi tumanida - **66,6 %** hamda Navbahor tumanida **54,9 %** ni tashkil etdi.



yashirin iqtisodiyotni qo'shgan holda

Kichik tadbirkorlik subyektlarining transport faoliyati

8,7 %

Yuk
tashishda

39,1 %

Yuk
aylanmasida

86,9 %

Yo'lovchi
tashishda

87,2 %

Yo'lovchi
aylanmasida

2024- yilning yanvar-dekabr oylarida avtomobil transportida yuk tashishning umumiy hajmida kichik tadbirkorlikning ulushi **8,7 %** ni tashkil etdi. 2023- yilning mos davriga nisbatan o'sish sur'ati **100,1 %** ni tashkil qildi.


2024- yilning yanvar-dekabr oylarida avtomobil transportida yuk aylanmasining umumiy hajmida kichik tadbirkorlikning ulushi **39,1 %** ni tashkil etgan bo'lib, 2023- yilning mos davriga nisbatan o'sish sur'ati **98,9 %** ni tashkil qildi.

2024- yilning yanvar-dekabr oylarida avtomobil transportida yo'lovchi tashish xizmatlarining umumiy hajmida kichik tadbirkorlikning ulushi **86,9 %** ni tashkil etib, 2023- yilning mos davriga nisbatan o'sish sur'ati **102,6 %** ni tashkil qildi.

2024- yilning yanvar-dekabr oylarida avtomobil transporti yo'lovchi aylanmasining umumiy hajmida kichik tadbirkorlikning ulushi **87,2 %** ni tashkil etib, 2023- yilning mos davriga nisbatan o'sish sur'ati **102,2 %** ni tashkil qildi.

Kichik korxona va mikrofirmalarning tanlanma kuzatuvlari

2024- yil IV chorak bo'yicha tanlanma kuzatuvda ishtirok etgan kichik korxona va mikrofirmalarning iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha taqsimlanishi, birlikda




2024- yil IV chorak yakunlariga ko'ra, kichik korxona va mikrofirmalar o'rtasida tanlanma kuzatuvlar o'tkazildi.

Ushbu so'rovnomada **946** ta kichik korxona va mikrofirmalar ishtirok etdi. Ularning **500 (52,9%)** tasi iqtisodiy vaziyatni qulay deb baholadi. **418 (42,2 %)** ta subyektlar iqtisodiy vaziyatni qoniqarli deb baholadi. Qolgan **28 (3,0 %)**ta subyektlar iqtisodiy vaziyatni qoniqarsiz deb baholagan.

Iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha kuzatuvda ishtirok etgan kichik korxona va mikrofirmalarning taqsimlanishi (ulushi) savdoda – **41,2 % (390 ta)**, xizmatlar sohasida – **25,5 % (241 ta)**, sanoatda – **15,3 % (145 ta)**, qishloq, o'rmon va baliqchilik xo'jaligida – **9,8 % (93 ta)**, qurilishda – **8,1 % (77 ta)** ni tashkil etdi.

2024- yil IV chorak bo'yicha tanlanma kuzatuvda ishtirok etgan kichik korxona va mikrofirmalarning iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha taqsimlanishi, % da



Kichik korxona va mikrofirmalarning tanlanma kuzatuvlari

2024- yil IV chorak bo'yicha kuzatuvda ishtirok etgan kichik korxona va mikrofirmalarning tuman va shaharlar bo'yicha taqsimlanishi

224	Navoiy sh.	23,7
149	Karmana t	15,8
144	Qiziltepa t.	15,2
107	Xatirchi t.	11,3
85	Navbahor t.	9,0
66	Nurota.t	7,0
46	Konimex t	4,9
62	Zarafshon sh	6,6
23	G'ozg'on sh.	2,4
23	Tomdi t.	2,4
17	Uchquduq t.	1,8


Soni, birlikda

Ulushi, foizda

Hududlar kesimida kichik tadbirkorlik subyektlarining eng ko'p kuzatuvda ishtirok etgan kichik korxona va mikrofirmalar Navoiy shahri (224 ta), Karmana tumani (149 ta), Qiziltepa tumani (144 ta) va Xatirchi tumani (107 ta) hissasiga to'g'ri keldi.

Kichik korxona va mikrofirmalarning tanlanma kuzatuvlari

Kichik tadbirkorlik subyektlarining 2020-2024- yillarning yanvar-dekabr oylarida umumiy iqtisodiy holatini baholanishi dinamikasi (joriy davrga nisbatan), birlik




Kichik korxona va mikrofirmalar faoliyati natijalari bo'yicha o'tkaziladigan tanlanma kuzatuv ma'lumotlari natijasi bo'yicha kichik korxona va mikrofirmalarning ishbilarmonlik muhiti holati tahlil qilinganda, korxonalar tomonidan o'zlarining umumiy iqtisodiy vaziyatini joriy davr uchun qulay deb baholagan korxonalarning soni 2020- yilning yanvar-dekabr oylarida **242** tani tashkil etgan bo'lsa, bu ko'rsatkich 2024- yilning yanvar-dekabr oylariga kelib esa **500** taga yetgan yoki 2020- yilning yanvar-dekabriga nisbatan **258** taga oshgan.

Shuningdek, iqtisodiy vaziyatini qoniqarli deb baholagan korxonalarning soni 2020- yilning yanvar-dekabr oylarida **367** ta bo'lgan bo'lsa, bu ko'rsatkich 2024- yilning yanvar-dekabriga nisbatan **418** ta yoki **51** taga oshgan.

O'z navbatida, iqtisodiy vaziyatini qoniqarsiz deb hisoblagan korxonalarning ulushi esa 2020- yilning yanvar-dekabr oylarida **40** tani tashkil etgan bo'lsa, 2024- yilning yanvar-dekabr oylariga kelib **28** tani tashkil etgan va bu ko'rsatkich 2020- yilning yanvar-dekabriga nisbatan **12** taga kamaygan.

Kichik korxona va mikrofirmalarning tanlanma kuzatuvlari


Kichik tadbirkorlik subyektlarining 2020-2024- yillarning yanvar-dekabr oylarida umumiy iqtisodiy holatini baholaganlar soni (o'tgan yilning tegishli davriga nisbatan), birlik



Kichik korxona va mikrofirmalar faoliyati natijalari bo'yicha o'tkaziladigan tanlanma kuzatuv ma'lumotlari natijasi bo'yicha kichik korxona va mikrofirmalarning ishbilarmonlik muhiti holati tahlil qilinganda, korxonalar tomonidan o'zlarining umumiy iqtisodiy vaziyatini o'tgan yilning mos davriga nisbatan qulay deb baholagan korxonalarning soni 2020- yilning yanvar-dekabr oylarida **405** tani tashkil etgan bo'lsa, bu ko'rsatkich 2024- yilning yanvar-dekabr oylarida kelib esa **450** taga yetgan yoki 2020- yilning yanvar-dekabriga nisbatan **45** taga oshgan. Shuningdek, iqtisodiy vaziyatini qoniqarli deb baholagan korxonalarning soni 2020- yilning yanvar-dekabr oylarida **223** ta bo'lgan bo'lsa, bu ko'rsatkich 2024- yilning yanvar-dekabr oylarida kelib esa **412** taga yetgan yoki **189** taga oshgan. O'z navbatida, iqtisodiy vaziyatini qoniqarsiz deb hisoblagan korxonalarning soni esa 2020- yilning yanvar-dekabr oylarida **21** tani tashkil etgan bo'lsa, 2024- yilning yanvar-dekabr oylarida kelib, bu ko'rsatkich **19** tani tashkil etib, **2** taga kamaygan.

Kichik korxona va mikrofirmalarning tanlanma kuzatuvlari

Kichik tadbirkorlik subyektlarining 2020-2024- yillarning yanvar-dekabr oylarida umumiy iqtisodiy holatining baholanish dinamikasi (korxonaning joriy holati bo'yicha), % da




Kichik korxona va mikrofirmalar faoliyati natijalari bo'yicha o'tkaziladigan tanlanma kuzatuv ma'lumotlari natijasi bo'yicha kichik korxona va mikrofirmalarning ishbilarmonlik muhiti holati tahlil qilinganda, korxonalar tomonidan o'zlarining umumiy iqtisodiy vaziyatini joriy davr uchun qulay deb baholagan korxonalar ulushi 2020- yilning yanvar-dekabr oylarida **37,3 %** ni tashkil etgan bo'lsa, bu ko'rsatkich 2024- yilning yanvar-dekabr oylarida kelib esa **52,9 %** ga yetgan yoki 2020- yilning yanvar-dekabriga nisbatan **15,6 %** ga oshgan.

Shuningdek, iqtisodiy vaziyatini qoniqarli deb baholagan korxonalarning ulushi 2020- yilning yanvar-dekabr oylarida **56,5 %** bo'lgan bo'lsa, bu ko'rsatkich 2024- yilning yanvar-dekabriga **52,9 %** yoki **3,6 %** ga kamaygan.

O'z navbatida, iqtisodiy vaziyatini qoniqarsiz deb hisoblagan korxonalarning ulushi esa 2020- yilning yanvar-dekabr oylarida **6,2 %** ni tashkil etgan bo'lsa, 2024- yilning yanvar-dekabriga kelib, bu ko'rsatkich **3,0 %** ga yetgan yoki **3,2 %** ga kamaygan.

Kichik korxona va mikrofirmalarning tanlanma kuzatuvlari

Kichik tadbirkorlik subyektlarining 2020-2024- yillar yanvar-dekabr oylarida umumiy iqtisodiy holatining baholanish dinamikasi (o'tgan yillarning mos davriga nisbatan), % da




Kichik korxona va mikrofirmalar faoliyati natijalari bo'yicha o'tkaziladigan tanlanma kuzatuv ma'lumotlari natijasi bo'yicha kichik korxona va mikrofirmalarning ishbilarmonlik muhiti holati tahlil qilinganda, korxonalar tomonidan o'zlarining umumiy iqtisodiy vaziyatini o'tgan yillarning mos davriga nisbatan yaxshilangan deb baholagan korxonalar ulushi 2020- yilning yanvar-dekabr oylarida **62,4** % ni tashkil etgan bo'lsa, bu ko'rsatkich 2024- yilning yanvar-dekabr oylarida kelib esa **47,6** % ga yetgan yoki 2020- yilning yanvar-dekabriga nisbatan **14,8** % ga kamaygan.

Shuningdek, iqtisodiy vaziyatini qoniqarli deb baholagan korxonalarning ulushi 2020- yilning yanvar-dekabr oylarida **34,4** % bo'lgan bo'lsa, bu ko'rsatkich 2024- yilning yanvar-dekabr oylarida **43,6** % yoki **9,2** % ga oshgan.

O'z navbatida, iqtisodiy vaziyatini qoniqsiz deb hisoblagan korxonalarning ulushi esa 2020- yilning yanvar-dekabr oylarida **3,2** % ni tashkil etgan bo'lsa, 2024- yilning yanvar-dekabr oylarida kelib, bu ko'rsatkich **2,0** % yoki **1,2** % ga kamaygan.

Kichik korxona va mikrofirmalarning tanlanma kuzatuvlari

2024- yilning IV choragida kuzatuvda ishtirok etgan kichik korxona va mikrofirmalarning joriy davrda iqtisodiy vaziyatini baholash, % da




Kichik korxona va mikrofirmalarning 2024- yilning IV choragida o'tkazilgan kuzatuv natijalariga ko'ra, joriy davrda iqtisodiy vaziyatni qulay deb baholagan korxonalarining iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha eng ko'p ulushi qishloq, o'rmon va baliqchilik xo'jaligi sohasida – **61,3** % ni savdo sohasida – **55,1** % ni, sanoat sohasida – **53,1** % ni, qurilish sohasida – **45,5** % ni tashkil etdi,

Shuningdek, iqtisodiy vaziyatni qoniqarli deb baholagan korxonalarining eng ko'p ulushi xizmatlar sohasida – **48,1** % ni, qurilish sohasida – **46,8** % ni, sanoat sohasida – **45,5** % ni tashkil etdi.

Iqtisodiy vaziyatni qoniqarsiz deb baholagan korxonalarining eng ko'p ulushi sanoat sohasida – **7,8** % ni, xizmatlar sohasida – **3,7** % ni, sanoat sohasida – **1,4** % ni tashkil etdi.

Kichik korxona va mikrofirmalarning tanlanma kuzatuvlari

2024- yilning IV choragida kuzatuvda ishtirok etgan kichik korxona va mikrofirmalarning yaqin 3 oydagi o'zgarishlar istiqboli bo'yicha iqtisodiy vaziyatini baholash, % da



2024- yilning IV choragida kuzatuvda ishtirok etgan kichik korxona va mikrofirmalarning yaqin 3 oydagi o'zgarishlar istiqboli bo'yicha iqtisodiy vaziyatni qulay deb baholagan korxonalarning iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha eng ko'p ulushi qishloq, o'rmon va baliqchilik xo'jaligi sohasida – **64,5** % ni, savdo sohasida – **56,2** % ni, sanoat sohasida – **53,8** % ni xizmatlar sohasida – **48,5** % ni va qurilish sohasida - **42,9** % ni tashkil etdi.

Shuningdek, yaqin 3 oydagi o'zgarishlar istiqboli bo'yicha iqtisodiy vaziyatni qoniqarli deb baholagan korxonalarning eng ko'p ulushi qurilish sohasida - **54,5** % ni, xizmatlar sohasida – **50,6** % va sanoat sohasida – **44,8** % ni, tashkil etdi.

Yaqin 3 oydagi o'zgarishlar istiqboli bo'yicha iqtisodiy vaziyatni qoniqarsiz deb baholagan korxonalarning eng ko'p ulushi qurilish sohasida – **2,6** % ni, sanoat sohasida – **1,4** % ni va savdo sohasida – **1,3** % tashkil etdi.

Kichik korxona va mikrofirmalarning tanlanma kuzatuvlari

2024- yilning IV choragida biznesga ishonch muhitini baholash, % da


	O'tgan yilning shu davriga nisbatan joriy davrdagi o'zgarishlar		
	Ko'payish (yaxshilanish*)	o'zgarishsiz	Kamayish (yomonlashish*)
Korxonaning umumiy aylanmasi	51,6	45,1	3,3
Band bo'lganlar soni	25,6	72,5	1,9
Sotilgan mahsulot (tovarlar, ishlar va xizmatlar) uchun narx	35,5	61,5	3,1
Moliyaviy mablag'lar: o'z, kredit va qarz mablag'lari	30,8	67,3	1,8
Raqobat muhiti	39,0	59,7	1,4

	Yaqin 3 oyda o'zgarishlar istiqboli		
	Ko'payish (yaxshilanish*)	o'zgarishsiz	kamayish (yomonlashish*)
Korxonaning umumiy aylanmasi	52,3	46,2	1,5
Band bo'lganlar soni	26,8	71,8	1,4
Sotilgan mahsulot (tovarlar, ishlar va xizmatlar) uchun narx	36,4	61,6	2,0
Moliyaviy mablag'lar: o'z, kredit va qarz mablag'lari	32,1	66,6	1,3
Raqobat muhiti	39,6	59,5	0,8

* Faqat raqobat muhitiga tegishli


Kichik korxona va mikrofirmalarning tanlanma kuzatuvlari

2024- yilning IV choragida biznesga ishonch muhitini baholash, o'tgan yilning shu davriga nisbatan joriy davrdagi o'zgarishlar, % da



■ ko'payish (yaxshilanish*) ■ o'zgarishsiz ■ kamayish (yomonlashish*)

2024- yilning IV choragida biznesga ishonch muhitini baholash, yaqin 3 oyda o'zgarishlar istiqboli, % da



■ ko'payish (yaxshilanish*) ■ o'zgarishsiz ■ kamayish (yomonlashish*)

* Faqat raqobat muhitiga tegishli